

## ZAMONAVIY SIYOSIY FANLARDA NORMATIV SIYOSIY NAZARIYALAR

*Iqboldinov Abdusamad Ilyosbek o‘g‘li  
O‘zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali Zamonaviy siyosiy fanlarda normativ siyosiy nazariyalarni yoritib berish jarayonida turli xildagi jahon adabiyotlaridan foydalanilgan bo‘lib, foydalanuvchilar uchun qiziqarli hamda foydali materiallarni berish uchun harakat qilgan holda, mana shunday maqola vujudga keldi.

**Kalit so‘zlar:** Siyosatshunoslik, nazariya, fan, siyosat, metodologiya, siyosat nazariyasi, evolutsiya, qarashlar, yondashuvlar, bosqichlar, qadriyatlar, institut, faoliyat, jarayon va boshqalar.

**Abstract:** Through this article, in the process of elucidating the normative political theories in modern political sciences, various types of world literature were used, and in an effort to provide interesting and useful materials for users, such an article was created.

**Key words:** Political science, theory, science, policy, methodology, political theory, evolution, views, approaches, stages, values, institution, activity, process, etc.

**Аннотация:** Благодаря этой статье в процессе выяснения нормативных политических теорий в современных политических науках были использованы различные виды мировой литературы, и в стремлении предоставить пользователям интересные и полезные материалы была создана такая статья.

**Ключевые слова:** Политология, теория, наука, политика, методология, политическая теория, эволюция, взгляды, подходы, этапы, ценности, институт, деятельность, процесс и более.

**Kirish:** Siyosat nazariyasi siyosatshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib u:

- Me’yoriy qisimdan;
- Emperik qisimdan;
- Fundamental qisimdan;
- Amaliy qisimdan iborat.

Siyosatshunoslikda normativ nazariyalar muayyan me’yoriy va xulq-atvor steriotiplarini o‘zida ifodalovchi tavsiya va tavsif harakteriga ega bo‘lgan nazariyalardir. Normativ siyosiy nazariya siyosiy institutlar ayniqsa hokimiyat bilan bog’liq bo‘lgan shaxslarning ushbu institutlar bilan munosabati haqida fikr yuritish usulidir.

Normativistik nazariya zamonaviy politologiyada jamoat axloqiga asoslanadi, shu bois siyosat olamida ro'y berayotgan barcha hodisalarni axloqiy, an'anaviy baholaydi. Siyosatning normativistik yondashuvi siyosiy idealni izlash deb ham qaraladi. Normativ siyosiy nazariya o'zining ideal qadriyatini topa olsa, unda u sof ilmiy nazariyaga va bilimga aylanadi.

Normativ nazariya 3 ta muhim qoidaga tayanadi:

- Normativ nazariyalar eng avvalo axloqiy dalillarning ichki izchilligiga erishishga intiladi. Shu bois uning nazaryotchilarida mantiq, analitik falsafaga murojaat qilish ustunlik qiladi;
- Normativ nazariyalar o'z dalillarining emperik asoslanganligini tekshirish uchun ijtimoiy antropologiya va tarix fanlariga tayanadi;
- Normativ nazariyada xulosalar nazaryotchilarning o'zining inpyutiv g'oyalari bilan taqqoslanadi.

1970-yilga kelib siyosatshunoslikda normativ siyosiy nazariyalar 2 asosiy mактабга asoslanadi:

- Adolat, erkinlik, ijtimoiy tenglik muammolari bilan shug'ullanuvchi maktabi;
- Davlat institutining faoliyati, maqsadi, axloqiy asosi va fuqarolar bilan munosabatini o'r ganuvchi maktabi.

Masalan, XX asrga kelib insonlar hayoti tubdan o'zgardi. *Erix From* ta'biri bilan aytganda, ish beruvchi bilan ishchining munosabatlari utilitarlashuvga aylanadi. Bu o'z salohiyatini sotgan kishi o'zini tovar sifatida ko'rishi deganidir. **Erix From:** "Agar insonning sifati jamiyat talablariga javob bermasa demak u hech qanday sifatga ega emas. Agar insonning sifati talab bo'lmasa, u jamiyatda hech kim emas".

Siyosatshunoslikda inson erkinligini tabiatini chuqur tahlil qilgan yo'naliш ekzistensializm yo'naliши hisoblanadi. Bu yo'naliшning yirik nomoyondasi Jon Polsapper "Inson qanday bo'lishni xohlasa shunday bo'ladi, chunki u o'zini-o'zi yaratadi".

**Siyosatshunoslik** siyosatni ilmiy o'rganish hisoblandi. Bu boshqaruв va hokimiyat tizimlari, siyosiy faoliyat, siyosiy fikr, siyosiy xatti-harakatlar va ular bilan bog'liq konstitutsiya va qonunlar tahlili bilan shug'ullanadigan ijtimoiy fan hisoblanadi. Zamonaviy siyosatshunoslikni odatda qiyosiy siyosat, xalqaro munosabatlar va siyosiy nazariyaning uchta kichik faniga bo'lishimiz mumkin. Boshqa e'tiborga molik kichik fanlar misol uchun- davlat siyosati va boshqaruvi, ichki siyosat va hukumat, siyosiy iqtisod va siyosiy metodologiya. Bundan tashqari, siyosatshunoslik iqtisod, huquq, sotsiologiya, tarix, falsafa, inson geografiyasi, siyosiy antropologiya va psixologiya sohalari bilan bog'liq va ularga tayanadi. Siyosatshunoslik uslubiy jihatdan xilma-xil bo'lib, psixologiya, ijtimoiy tadqiqotlar va siyosiy falsafada paydo bo'lgan ko'plab usullarga mos hisoblandi. Yondashuvlarga pozitivizm, interpretativizm, bixevoiralizm, strukturalizm,

poststrukturalizm, realizm, institutsionalizm va pluralizm kiradi. Siyosatshunoslik, ijtimoiy fanlardan biri sifatida, izlanayotgan so'rov turlariga taalluqli usul va usullardan foydalanib keladii: tarixiy hujjatlar va rasmiy hujjatlar kabi birlamchi manbalar, ilmiy jurnal maqolalari, so'rov tadqiqotlari, statistik tahlillar, holatlar kabi ikkilamchi manbalar. tadqiqotlar, eksperimental tadqiqotlar va model yaratish hisoblandi.

**Siyosiy fanda ham boshqa fanlardagi kabi metodologiya:**

- turli uslublarni yoki bir nechta uslublarning muayyan birligini siyosiy bilim olish uchun qo'llash;
- tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalani to'g'ri qo'ya bilish, uni to'g'ri bayon etish;
- ushbu muammoga mos yondashuvlarni, vositalarni to'g'ri tanlay bilish kabi masalalar bilan bog'liq.

Metodologiya va uslublarning siyosiy fan doirasida rivojlanishi - uning predmeti rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Ular siyosiy fikr rivoji davomida asta- sekin shakllanib borgan. Ular bir davrning o'ziga xos uslublari, yondoshuvlari mavjud. Taxminan XX asr boshlarigacha ijtimoiy - siyosiy tadqiqotlar amaldagi voqeahodisalarni bayon etib, qiyoslab, ular asosida mantiqiy - falsafiy, axloqiy, qadriyatiy xulosalarni ishlab chiqqan. XIX asr davomida siyosiy fikrda tarixiy-qiyosiy va me'yoriy- institutsional uslublar etakchilik qilgan. XX asr boshlaridan dunyo xususiyatlarini bilishga qaratilgan aks etgiruvchi bilim o'rnnini yangicha yondashuvlar egallay boshladi. Ularga ko'ra siyosat bir turdag'i gomogen dunyo bilan emas, xilma - xillikka asoslangan, ko'p o'lchovli va ko'p markazli dunyo bilan ish ko'radi. Bu yondoshuvlarda bilim - inson manfaatiga hizmat qiluvchi, umuman, hayotni saqlab qolishga qaratilgan vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun ham bilim-haqiqiy bo'lishi, ya'ni odamlarning hayot haqidagi tasavvurlari, orzu- umidlariga emas, real hayot, real-faktlarga tayanishi lozim, degan qarashlar bu davrda ustunlik qila boshlaydi.

Siyosat nazariyasi o'z shakllanish yo'lida bir qancha falsafiy - sotsiologik manbalarga tayangan. Bular pozitivizm (O. Kont, G. Spenser), bixevoirizm (E.Torndayk, G.Uolles, U.Lippman, Ch.Merriam) va pragmatizmdir. (Ch.Pirs). Ushbu yo'naliishlarni bilish va chuqur o'rganish zarur. Shu bilan birga, bu falsafiy - sotsiologik manbalar sharq madaniyati, dunyo haqidagi bizning tasavvurlarimiz tizimiga uyg'un tusha olmasligini ham anglashimiz kerak bo'ladi. O'zbekistondagi ko'p siyosiy jarayonlarni g'arb metodologik sxemalariga tushirib bo'lmaydi. Masalan, inson-huquqlari masalasini o'rganishda mamlakatimizning madaniy o'ziga hosligi xisobga olinmay iloji yo'q. Ammo, bundan g'arb politologiyasining uslubiyot sohasidagi yutuqlari biz uchun ahamiyatsiz, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Siyosat nazariyasi paradigmalari. Asrlar davomida olimlar dunyo haqida to'plagan bilimlari saralanib, alohida yondashuvlar qatorini tashkil etadi. XX asr boshida amerikalik fizik olim T.Kun ana shu saralangan yondoshuvlarni' nomlash uchun "paradigma" terminini kiritdi. Unga ko'ra, paradigma - o'rganilayotgan masalani

qo'yish va hal qilishning o'ziga xos mantiqiy modeli. Siyosatda paradigma ilmiy tahlil yo'nalishini belgilaydi, tadqiqotchi uning asosida muayyan tamoyil va belgilarga suyanib real faktlarni to'playdi, umumlashtiradi, bashorat qiladi. Siyosat murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lganligi uchun uni o'rganishda turlicha yondashuvlar qo'llanadi. Ularning ayrimlari siyosat nazariyasida ahamiyatga ega. Shartli ravishda teologik, tabiiy, ijtimoiy va ratsional- tanqidiy paradigmalar ajratiladi.

**Ko'plab siyosatshunoslar quyidagi tavsiflangan to'rtta yo'nalishdan birida tadqiqot olib boradilar:**

- **Siyosiy falsafa** : siyosiy hamjamiyat va institutlar asoslari bilan bog'liq bo'lib, inson tabiatni va siyosiy birlashmaning axloqiy maqsadlariga e'tibor qaratadi.
- **Qiyosiy siyosat** : zamonaviy siyosiy tizimlarni solishtiradi va umumiylar qonunlar va nazariyalarni kashf etadi.
- **Xalqaro aloqalar** : Davlatlar va nodavlat xalqaro ishtirokchilarning nima uchun o'zaro ta'sirini tushunishni rivojlantirish bilan bog'liq.
- **Siyosiy metodologiya** : Ijtimoiy fanlar, siyosatshunoslik, empirik tadqiqot dizayni va tahlilining falsafiy asoslarini o'rganadi.

Ba'zi siyosatshunoslik bo'limlari, shuningdek, ma'lum bir mamlakatning ichki siyosati bo'yicha metodologiya va stipendiyalarni alohida sohalar sifatida tasniflaydi. Qo'shma Shtatlarda Amerika siyosati ko'pincha alohida kichik soha sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu an'anaviy tasnidan farqli o'laroq, ba'zi akademik bo'limlar stipendiyalarni tematik toifalarga, jumladan, siyosiy falsafa, siyosiy xatti-harakatlar (jumladan, jamoatchilik fikri, jamoaviy harakatlar va o'ziga xoslik) va siyosiy institutlar (shu jumladan qonun chiqaruvchi organlar va xalqaro tashkilotlar) ni tashkil qiladi. Siyosatshunoslik konferentsiyalari va jurnallari ko'pincha stipendiyani aniqroq toifalarda ta'kidlaydi. Masalan, Amerika Siyosatshunoslik Assotsiatsiyasida siyosiy tadqiqotning turli usullari va mavzulariga bag'ishlangan 42 ta bo'lim mavjud hisoblandi.

Siyosatshunoslik boshqa ijtimoiy fanlarning an'anaviy yo'nalishi bo'lgan o'rganish mavzulari bilan bir-biriga mos kelishi mumkin, masalan, sotsiologik me'yorlar yoki psixologik qarama -qarshiliklar siyosiy hodisalar bilan bog'liq bo'lsa. Bunday hollarda siyosatshunoslik ularning o'rganish usullarini meros qilib olishi yoki qarama-qarshi yondashuvni ishlab chiqishi mumkin. O'z navbatida, siyosatshunoslikda ishlab chiqilgan metodologiyalar sog'liqni saqlash kabi boshqa sohalardagi tadqiqotchilarning siyosiy jarayonlar va siyosatlarni qanday tasavvur qilishlari va ularga yondashishlariga ta'sir qilishi mumkin.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Kamoliddin Mirzaahmedov – Ma’ruza matni
2. B.П.Пугачев, А.И.Соловьев – **Siyosatshunoslikka kirish** – Toshkent – 2004
3. Biturayev.O’.B - **Siyosatshunoslikka kirish** - Toshkent - 2017
4. M.Qirg’izboyev – **Siyosatshunoslik** - Toshkent - 2013
5. A.Qodirov – **Siyosat falsafasi** - Toshkent - 2005
6. Arxiv.uz // <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/siyosatshunoslik/siyosat-nazariyasining-predmeti/>
7. Vikipediya // [https://uz.wikipedia.org/wiki/Political\\_science/](https://uz.wikipedia.org/wiki/Political_science/)
8. Azkurs.org // [https://azkurs.org/siyosiy-fan-metodologiyasi-va-usullarining-shakllanish-jarayon.html/](https://azkurs.org/siyosiy-fan-metodologiyasi-va-usullarining-shakllanish-jarayon.html)